

X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR
FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)


Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni 122,4 mingtani tashkil qilib, shundan 117,8 mingtasi yoki 96,3 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (ro‘yxatga olinganlarning umumiyligi sonidan 30,6 %), sanoat (14,2 %), qurilish (8,2 %) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (6,5 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar taqsimoti (2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)

	<i>Ro‘yxatga olanganlar</i>		<i>Faoliyat ko‘rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	122 374	100,0	117 812	100,0
shu jumladan:				
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari	1 112	0,9	1 074	0,9
Sanoat	17 380	14,2	16 779	14,2
Qurilish	10 018	8,2	9 634	8,2
Savdo	37 421	30,6	36 093	30,6
Tashish va saqlash	4 812	3,9	4 673	4,0
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7 945	6,5	7 549	6,4
Axborot va aloqa	5 529	4,5	5 346	4,5
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2 05	1,9	2 246	1,9
Boshqa turdagи xizmatlar ko‘rsatish	35 852	29,3	34 418	29,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



Toshkent shahrida ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p miqdori 30,6 % savdo sohasida, 14,2 % sanoat sohasida, 8,2 % qurilish sohasida, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,5 % axborot va aloqa, 4,0 % tashish va saqlash, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida va 29,3 % boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxona va tashkilotlarning soni 107,6 mingta bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 90,7 mingta, xususiy korxona – 12,0 mingta, oilaviy korxona – 3,7 mingta, unitar korxona – 0,4 mingta, aksiyadorlik jamiyatlar – 0,2 mingta va 0,3 mingta boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat yuridik shaxslarning taqsimoti, birlikda**



2022-yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni 15,8 mingtani tashkil etgan bo‘lib, shundan kichik biznes sub’ektlari 11,1 mingtani tashkil qiladi.

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Chilonzor (1932 ta), Mirzo Ulug‘bek (1917 ta), Yunusobod (1905 ta), Shayxontohur (1467 ta), Olmazor (1429 ta), Yashnobod (1422 ta), Yakkasaroy (1335 ta), Mirobod (1334 ta) va Uchtepa (1215 ta) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keldi. Aksincha, Sergeli (883 ta), Yangihayot (560 ta) hamda Bektemir (373 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlar tashkil etish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Korxona va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)


(birlikda)

	2023- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra ro‘yxatga olinganlar	2022- yil yanvar-dekabr oylarida	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
Toshkent shahar	122 374	15 772	3 238
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	10 621	1 215	288
Bektemir	3 009	373	80
Yunusobod	15 284	1 905	370
Mirzo-Ulug‘bek	14 098	1 917	352
Mirobod	10 203	1 334	290
Shayxontohur	11 833	1 467	304
Olmazor	12 126	1 429	342
Sergeli	6 320	883	188
Yakkasaroy	10 473	1 335	254
Yashnabod	10 111	1 422	275
Yangihayot	2 814	560	71
Chilonzor	15 482	1 932	424

2023 -yil 1-yanvar holatiga ro‘yxatdan o‘tgan korxona

va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) birlikda



2022-yil yanvar–dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)




Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarning soni 106,1 mingtani tashkil etgan (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz).


Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 13458 birlik Chilonzor, 12943 birlik Yunusobod, 12083 birlik Mirzo Ulug‘bek, 10831 birlik Olmazor, 9950 birlik Shayxontohur, 9540 birlik Uchtepa hamda 9295 birlik Yakkasaroy tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Faoliyat ko‘rsatayotganlarning eng kam qismi esa 8677 birlik Yashnobod, 8522 birlik Mirobod, 5590 birlik Sergeli, 2720 birlik Bektemir hamda 2462 birlik Yangihayot tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan jami 106071 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 35727 birligi (33,7 %) – savdoda, 16567 birligi (15,6 %) – sanoatda, 9521 birligi (9,0 %) – qurilishda, 7499 birligi (7,1 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 5198 birligi (4,9 %) – axborot va aloqa sohasida, 4582 birligi (4,3 %) – tashish va saqlashda, 1957 birligi (1,8 %) – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 1062 birligi (1,0 %) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida, shuningdek 23958 birligi (22,6 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, foizda
2023-yil 1-yanvar holatiga**




Shundan ko'rilib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari turlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatga olingan korxona soni 9 991 birlikni, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona soni 9 716 birlikni tashkil etadi. O‘tgan yilga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning soni 1 828 taga yoki 18,8 % ga o‘sgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonadan 3 335 tasi qo‘shma korxona, 5 701 tasi esa xorijiy korxona hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning o‘sish dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, birlikda 2023-yil 1-yanvar holatiga



Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turiga to‘g‘ri keladi, eng kam ulush esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari faoliyat turlariga to‘g‘ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil topgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda 2022- yil yanvar–dekabr oylarida



2022-yilning yanvar–dekabr oylarining yakuni bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi 2 111 ta korxona yangi tashkil qilindi. Bunda, Rossiya federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokidagi korxona soni – 776 tani, Turkiya Respublikasi – 225 tani, Qozog‘iston Respublikasi – 162 tani, Xitoy Xalq Respublikasi – 151 tani hamda 797 tani boshqa davlatlar tashkil qildi. Shuningdek, 2 022 yilda Afg‘oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari hamkorlik qilishga qiziqish bildirdilar.


Oilaviy korxonalar soni

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 4000 birlikni tashkil etdi, ulardan 3795 birlik yoki 94,9 % faoliyat yuritmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning soni ko'rildiganda oilaviy korxonalarning 33,6 % yoki 1 275 tasi sanoat, 26,6 % yoki 1010 tasi savdo, 18,6 % yoki 704 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,2 % yoki 82 tasi qishloq o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,4 % yoki 53 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 48 tasi qurilish, 1,7 % yoki 65 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 40 tasi tashish va saqlash hamda 13,5 % yoki 518 tasi boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelmoqda.

2023-yil 1-yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning ulushi, foizda



2023-yil 1-yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning sonini ko'rildiganda eng katta soni sanoat va savdoda, eng kichik soni esa qurilish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash hamda tashish va saqlash xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24– avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275– son qarorining 1– ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.